



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 3-mart

71-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-fevraldagи “2025-yilgi
Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish
to'g'risida”gi PQ-68-son qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining
2025-yil 26-fevraldagи 107-11-0-Q/25-sonli qarori to'g'risida**

Navro'z umumxalq bayramini viloyat, tuman (shahar)lar markazlari hamda qishloqlarda umumxalq sayillari shaklida yuqori saviyada nishonlash, ularda keng xalq ommasining faol ishtirok etishini ta'minlash, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini **“Atrof-muhitni asrash
va “yashil iqtisodiyot” yilida** amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-fevraldagи “2025-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi PQ-68-son qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 26-fevraldagи 107-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-fevraldagи “2025-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi PQ-68-son qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 26-fevraldagи 107-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

2025 yilgi Navro'z umumxalq bayrami mamlakatimizda **“Qadriyatlarining boqiy
bo'lsin, Navro'z!”** degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida ko'tarinki ruh va yuqori darajada keng nishonlanishi belgilanganligi;

Quyidagilar:

2025-yilgi Navro'z umumxalq bayramining g'oyaviy-badiiy konsepsiysi (keyingi o'rirlarda - Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq;

2025-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda - Tashkiliy qo‘mita) tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Tashkiliy qo‘mitaga Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlari, barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovullarda Konsepsiya asosida ishlab chiqiladigan Navro‘z umumxalq bayramini munosib nishonlash bo‘yicha tashkiliy-amaliy, madaniy-ma’naviy hamda targ‘ibot tadbirlari dasturini tasdiqlash, shuningdek, uning amalga oshirilishini ta’minalash vazifasi yuklatilganligi;

o‘tkaziladigan bayram tadbirlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va viloyatlarda tegishli mahalliy byudjetlar hamda homiylik xayriyalari hisobidan qoplanishi belgilab qo‘ylganligi **ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.**

3. Farg‘ona tumanida 2025-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha **Farg‘ona tumani tashkiliy qo‘mitasi tarkibi 1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Tashkiliy qo‘mita (O.Abduraximov, I.Toshpo‘latov, X.Abdug‘aniyeva):

Navro‘z umumxalq bayramini tuman markazi hamda qishloqlarda umumxalq sayillari shaklida yuqori saviyada nishonlash bo‘yicha “**Qadriyatlarin boqiy bo‘lsin, Navro‘z!**” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan Navro‘z umumxalq bayramini o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini (keyingi o‘rinlarda - Dastur) **uch kun muddatda** ishlab chiqsin va tasdiqqa kiritsin.

5. Mazkur Dasturni tayyorlashda barcha tadbirlarni tom ma’noda **umumxalq sayli va shodiyonasi sifatida o‘tkazish**, milliy qadriyat va an’analalarimiz hamda bugungi islohotlarimizning ma’no-mohiyatiga, Konsepsiya bayon etilgan asosiy yo‘nalish va tavsiyalarga mos holda, yuksak darajada tashkil etish, ularda yurtdoshlarimizning faol ishtirok etishini ta’minalash maqsadida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratilsin:

umumxalq sayillari uyushtiriladigan asosiy maydonlar, ko‘cha va xiyobonlarni milliy uslubda bayramona bezatish;

bayram tadbirlarini borliqning uyg‘onishi, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik, ona zaminga mehr va e’tiborni ifoda etadigan, yurtdoshlarimizni bugungi tinch va osuda hayotimizni qadrlab, shukronalik tuyg‘usi bilan yashashga undaydigan ta’sirchan mazmun va shakl bilan o‘tkazish;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar, xalqimizning kundalik hayoti, ongi va dunyoqarashida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar Navro‘zning insonparvarlik va inklyuzivlik mohiyatiga, azaliy qadriyat va an’analara hamohang ekanini aks ettirish;

bu yilgi Navro‘z bayrami muqaddas **Ramazon oyida nishonlanishini inobatga olib**, keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e’zozlash, ijtimoiy himoya daftarlariiga kiritilgan hamda ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ular uchun bayram dasturxoni yozish hamda turli xayriya tadbirlarini amalga oshirish;

“**Yashil makon**” umummilliylar loyihasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, Navro‘z bayrami arafasida **tumanning barcha ko‘cha, mahallalarida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish aksiyalarini, umumxalq hasharlarini o‘tkazish**;

jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo do‘slik va totuvlik muhitini mustahkamlash maqsadida yurtimizda yashayotgan **turli millat va elatlar vakillarining milliy urf-odatlari, an’ana va qadriyatlarini** keng namoyish qilish;

bayram tadbirlari davomida hunarmandchilik ko‘rgazmalari, **milliy sport turlari bo‘yicha musobaqalarni** o‘tkazish, kitob ko‘rgazmalari, arzonlashtirilgan **qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkalari**, ko‘chma savdo do‘konlarini tashkil etish, ko‘klam taomlarini tayyorlash hamda ularning **ko‘rgazma-savdolari va tanlovlarini uyushtirish**;

qishloqlarda o‘tkaziladigan bayram tantanalarida, ommaviy axborot vositalarida Navro‘z bayramining tarixi, har bir hududda uni nishonlash bilan bog‘liq udum va an’analarni **keng targ‘ib qilish**.

bayram tadbirlari doirasida har bir hududga xos bo‘lgan xalq o‘yinlari, tomoshalar, ko‘rgazmalar o‘tkazish, bahoriy taomlar sotiladigan ochik oshxonalar tashkil qilish;

barcha tadbirlar **jamoat xavfsizligi talablariga qat’iy rioya qilingan holda o‘tkazilishini ta’minlasin.**

6. Tashkiliy qo‘mita (I.Toshpo‘latov, X.Abdug‘aniyeva), Madaniyat bo‘limi (M.Abdullayev), Ma’naviyat va ma’rifat markazi Farg‘ona tumani bo‘linmasi (F.Omonova) bilan birgalikda:

uch kun muddatda tuman markazida Navro‘z umumxalq bayramini o‘tkazish bo‘yicha bayram dasturlarini va ommaviy tomoshalarni tayyorlashda, ko‘chalar, xiyobonlar va maydonlarni bezatishda katta mahorat va tajribaga ega bo‘lgan ssenarist va rejissyorlar, ijodkorlar, kompozitor va bastakorlar, baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste’dodli yosh ijrochilar, folklor san’ati vakillaridan iborat ijodiy guruhlarni keng jalb etgan holda tadbirlarning **ssenariy va dasturlarini ishlab chiqsin;**

Navro‘z umumxalq sayillariga xorijiy va mahalliy sayyohlarning tashrifini tashkil etish maqsadida keng targ‘ibot va tayyorgarlik ishlarini amalga oshirsin;

joylarda bo‘lib o‘tadigan umumxalq sayillariga mahalliy folklor guruhlari, badiiy havaskorlik jamoalari, sirk san’ati ustalari, oilaviy ansambllar, baxshilar, shoirlar,

shuningdek, professional ijrochilar va iste'dodli estrada artistlarini belgilangan tartibda keng jalb etsin.

7. Farg'ona tumani hokimining birinchi o'rinosari O.Abduraximov, Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov):

Navro'z umumxalq bayramini o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni belgilangan tartibda mahalliy byudjet va homiylik xayriyalari hisobidan qoplash choralarini ko'rsin.

8. Farg'ona tumani hokimligi Axborot xizmati (A.Ergashev) tumanda Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tumanda amalga oshirilayotgan ishlarni atroflicha yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Farg'ona tuman
hokimi**



**INOMOV
XAMIDULLO.TADJIYEVICH**

Farg‘ona tuman hokimining
2025-yil 3-martdagи
71-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Farg‘ona viloyatida 2025-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni
o‘tkazish bo‘yicha Farg‘ona tumani tashkiliy qo‘mitasi**

TARKIBI

1.	X.Inomov	Farg‘ona tumani hokimi, Tashkiliy qo‘mita raisi
2.	O.Abduraximov	Farg‘ona tumani hokimining birinchi o‘rinbosari, Tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari
3.	I.Toshpo‘latov	Farg‘ona tumani hokimining o‘rinbosari, Tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari
4.	X.Abdug‘aniyeva	Farg‘ona tumani hokimining o‘rinbosari, Tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari
5.	J.Xasanov	Farg‘ona tumani Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
6.	O.Tursunov	Milliy gvardiya tuman qo‘riqlash bo‘limi
7.	D.Xomidov	O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Farg‘ona tumani bo‘limi boshlig‘i
8.	A.Yusupov	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
9.	I.Xamdamov	Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i
10.	B.Mo‘minov	Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
11.	M.Abdullayev	Madaniyat bo‘limi boshlig‘i
12.	F.Omonova	Ma’naviyat va ma’rifat markazi Farg‘ona tumani bo‘limi
13.	M.Alijonov	O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona tumani bo‘limi boshlig‘i
14.	N.Sobirov	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
15.	X.Toshboyev	Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
16.	R.Xojiqurbanov	Davlat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i
17.	Sh.Yuldahev	Maktabgacha va maktab talimi bo‘limi boshlig‘i
18.	U.Toshbekov	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi inspeksiyasi boshlig‘i

Izoh: Tashkiliy qo‘mita a’zolari boshqa ishga o‘tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarini bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.